

XUSHXABAR

// 25 December 2023 yil

<https://special.uzkiyosanoat.uz/oz/press/news/hushxabar>



O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining 80 yilligi munosabati bilan bir guruh olim va tadqiqotchilarni mukofotlash to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni bilan Mamlakatimizda ilm-fan sohasini rivojlantirish, xalqimizning intellektual salohiyatini yuksaltirish, fan-texnika taraqqiyotini yangi bosqichga ko'tarish borasidagi ko'p yillik samarali mehnati, nufuzli xorijiy muassasalar bilan o'zaro hamkorlikni yanada mustahkamlash, boy ma'naviy merosimizni xalqaro miqyosda targ'ib etish, ilg'or innovatsion loyihalarni amalga oshirishga qo'shgan ulkan hissasi, yuksak bilimli va malakali ilmiy xodimlarni tayyorlash, yoshlarimizni buyuk allomalarimizga munosib avlod etib tarbiyalash, Uchinchi Renessans poydevorini yaratish yo'lidagi ibratli faoliyati hamda ijtimoiy hayotdagi faol ishtiroki uchun "O'zkiyosanoat" AJ tizimidagi "Toshkent kimyo-texnologiya ilmiy-tadqiqot instituti" davlat unitar korxonasi direktori, akademik Djalilov Abdulaxat Turapovich "Do'stlik" ordeni bilan taqdirlandi.

Shu munosabat bilan, akademik Djalilov Abdulaxat Turapovichni "O'zkiyosanoat" AJ hamda ko'p ming sonli kimyo sanoati xodimlari nomidan ushbu yuksak mukofot bilan samimiy tabriklaymiz!